XALQ DEPUTATLARI TERMIZ TUMANI KENGASHINING QARORI

191200, Termiz tumani At-Termiziy ko‘chasi 1-uy, tel:(376)36-32-200, faks: (376)36-32-200

2023 - yil 11 - avgust VI-59-120-8-117-K/23 Termiz tuman hokimligi

Termiz tumani mahalliy budjetining 2023-yil II chorak yakuniga ko‘ra qo‘shimcha shakllangan mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi 128-sonli “O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash hamda Termiz tumani mahalliy budjetining qo‘shimcha shakllangan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish maqsadida Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Termiz tuman hokimi birinchi o‘rinbosari O.Yakubovning Termiz tuman mahalliy byudjetining 2023-yil II chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2023-yil II chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-sonli Qonuni va O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 126-moddasiga muvofiq ilovada ko‘rsatilgan maqsadlar uchun ajratilsin.

3. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning

rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi L.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Termiz tumani Kengash raisi **SH.X.Nazarov**

Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashining
2023-yil 11-avgustdagi
VI-59-120-8-117-K/23-son qaroriga
1-ilova

Termiz tuman mahalliy budjetining 2023-yil 2-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan zarur va kechiktirib bo'lmaydigan xarajatlarga yo'naltirilgan mablag‘lar

T/r	Tashkilotlar nomi	Mazmuni	Summa ming so‘mda	*Foiz hisobida*
I	**Jami Daromadni oshirib bajarilgan qismi hisobidan**		**1 492 500,0**	***100,0%***
	shundan:			
II	**Soxalar buyicha ajratilgan mablag‘ maqsadi**		**1 492 500,0**	***100,0%***

2,1	Tuman Hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13 apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-5072-sonli va 2022-yil 25 oktabrdagi PQ-409 son qaroriga asosan tumandagi "Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi"ga	448 000,0	*30,0%*

2,2		O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi "Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-5020 son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi "“Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 145-son qaroriga asosan “Ayollar daftari” jamg‘armasiga	224 000,0	*15,0%*
2,3		O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19 yanvardagi PQ-92-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-martdagi "Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi 132-son qaroriga asosan “Yoshlar daftari” jamg‘armasiga	224 000,0	*15,0%*
2,4		O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 27-iyundagi PQ-4366-son qarori va Xalq deputatlari Termiz tuman kengashining 2023-yil 7 apreldagi VI-54-57-8-117-K/23-sonli qaroriga asosan matbuot xizmati 2 nafar xodimining iyun, iyul, avgust, sentabr oylari uchun ish xaqlari uchun	36 624,0	*2,5%*
2,5		Tuman hokimligi ma’muriy binosi xavfsizligini ta’minlash maqsadida tuman IIB qo‘riqlash bo‘limi qorovullik bo‘linmasi xarajatlari uchun	20 000,0	*1,3%*
2,6		Tuman hokimligi xizmat avtomashinalariga yoqilg'i maxsulotlari uchun	10 000,0	*0,7%*
2,7		Tuman hokimligi xuzuridagi Otchopar sayilgohi hududini sug'orish maqsadida suv nasoslarini xarid qilish uchun	25 000,0	*1,7%*
2,8		Termiz tuman mahalliy budjetiga yer uchastkalariga bo’lgan huquqlarni sotishdan tushgan tushumlar hisobidan tuman hokimligining 22.06.2023y 123-8-117-F/23-sonli farmoyishiga asosan	42 225,0	*2,8%*
2,9		E-Kengash elektron tizimi uchun	6 000,0	*0,4%*
3		Viloyat Kompyuterlashtirish markaziga	30 000,0	*2,0%*
3,1		Tuman Hokimligi ishchi xodimlari ish xaqqi va ajratmasi uchun	16 027,0	*1,1%*
3,2		Tuman Hokimligiga DXX xizmat uyini ta'mirlash uchun	50 000,0	*3,4%*
3,3		Tuman Hokimligiga xizmat uylariga o'rnatilgan quyosh panellar olish uchun	50 000,0	*3,4%*
3,4		Tuman Hokimligining moddiy texnika bazasini mustahkamlash (quyosh paneli, turniket o`rnatish hamda kondisioner, planshet olish) uchun	206 057,0	*13,8%*
3,5	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasining moddiy texnika bazasini mustahkamlash hamda tuman hududini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish uchun gul ko'chatlari olish uchun	104 567,0	*7,0%*